

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida

UDK:658.01:385/388(575.1)

Qarshiev Azamat Namazovich

**Mavzu: O'zbekiston iqtisodiyoti transport sektorida raqobatni
rivojlantirish va boshqarish**

70411201 - "Menejment" (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

dissertatsiya


Ilmiy rahbar: PhD Yusupov U.Sh.

Toshkent-2023

Magistrlik dissertatsiya ishi "Menejment" kafedrasida dastlabki
himoyadan o'tgan.


9 - sonli bayonnoma "17" may 2023 y.

Kafedra mudiri: F.I.Sh.


imzo


17.05.2023
sana

Ilmiy rahbar: F.I.Sh,


imzo

17.05.2023
sana

Talaba: F.I.Sh,


imzo

17.05.2023
sana

ANNOTATSIYA

Tadqiqotda transport xizmatlari bozorida raqobatning rivojlanishi tahlil qilinadi. Transport sektori tomonidan hal qilinadigan vazifalar qatoriga yuklarni yetkazib berishni tashkil etish bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan xizmat ko'rsatish kiradi. Transport korxonasiining raqobatbardoshligi nafaqat tarif siyosati, balki taklif etilayotgan xizmatlar darajasi, shuningdek, qo'shimcha xizmatlar ko'lami bilan ham belgilanadi.

Transport xizmatlarining raqobatbardosh bozorini rivojlantirish yuqori sifatli transport xizmatlari taklifining talabdan oshib ketishi uchun shart-sharoit yaratishni, shuningdek, narxlar va xizmatlar sifati nuqtai nazaridan bozorning oshkoralik va axborot ochiqligini ta'minlashni taqozo etadi. Bu iste'molchilarning transport xizmatlarini yerkin tanlashini ta'minlaydi, narx-sifat mexanizmini ishlasa, narx va sifat raqobat predmetiga aylanadi. Transport kommunikatsiyalari mintaqadagi barcha hududiy ob'ektlarni birlashtiradi, bu uning iqtisodiy makonining birligining zaruriy shartidir.

Tadqiqotda aniq amaliy misoldan foydalanib, u to'qimachilik mahsulotlarini yuk tashish bozorida transport korxonasiining raqobatbardoshligini baholash jarayonini ko'rsatadi, shuningdek, yuk tashish sifatini yaxshilash bo'yicha aniq tavsiyalarni ishlab chiqadi.

Tayanch iboralari: *transport, xizmat ko'rsatish bozori, raqobat, yo'lovchilar xavfsizligi*

ANNOTATION

The study analyzes the development of competition in the transport services market. Among the tasks solved by the transport sector is the provision of services with specific characteristics related to the organization of cargo delivery. The competitiveness of the transport enterprise is determined not only by the tariff policy, but also by the level of services offered, as well as the scope of additional services.

The development of a competitive market of transport services requires the creation of conditions for the supply of high-quality transport services to exceed the demand, as well as the provision of transparency and information openness of the market in terms of prices and quality of services. It provides consumers with a free choice of transport services, if the price-quality mechanism works, price and quality become the subject of competition. Transport communications unite all territorial objects in the region, which is a necessary condition for the unity of its economic space.

Using a specific practical example in the study, it shows the process of assessing the competitiveness of a transport company in the market of transportation of textile products, and also develops specific recommendations for improving the quality of transportation.

Key words: *transport, service market, competition, passenger safety*

MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro'yxati.....	6
Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	7
Keltirilgan qisqartmalar.....	8
I BOB. KIRISH.....	9
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi... ..	11
1.2. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	12
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	12
1.4. Tadqiqotning ob'ekti va predmeti.....	13
1.5. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	13
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	14
2.1. “O‘zbekiston iqtisodiyoti transport sektorida raqobatni rivojlantirish va boshqarish” mavzusidagi ilmiy-nazariy qarashlarga sharh.....	14
2.2. Tadqiqot bilan bog‘iq mahalliy normativ qonun - qoidalar sharhi.....	19
III BOB. METODOLOGIYA.....	23
3.1. Tadqiqot dizayni.....	23
3.2. Ma'lumot yig'ish jarayoni.....	23
3.3. Qo'llaniladigan tahlil usullari.....	23
IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....	37
4.1. “CELEBRITY STYLE” mas'uliyati cheklangan jamiyatining ijtimoiy - iqtisodiy faoliyati taxlili.....	37
4.2. “CELEBRITY STYLE” mas'uliyati cheklangan jamiyatining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....	39
4.3. “CELEBRITY STYLE” mas'uliyati cheklangan jamiyatining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil.....	49
V BOB. XULOSA.....	56
5.1. Tadqiqotdan olingan xulosalar.....	56
5.2. Tadqiqotning asosiy takliflari va tavsiyalari.....	60
5.3. Tadqiqotning cheklovlari va kelajakdagi tadqiqotlar uchun tavsiyalar.....	61
Foydalanilgan adabiyotlar.....	62

I BOB. KIRISH

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanishida transport sektori muxim o'rinni egallaydi, chunki boshqa soxalar va tarmoqlar taraqqiyoti va bevosita transport kommunikatsiyasi bilan uzviy bog'langan bo'lib uning ta'siri pirovard natijada mamlakatimizning butun iqtisodiyotida o'z aksini topmokda. Mamlakatimiz Prezidenti va xukumatimizning Respublikamizda transport kommunikatsiyasi, shu jumladan, avtomobil transportini rivojlantirish bo'yicha say-harakatlari ushbu soxaning nechog'lik muhim ekanligidan yaqqol dalolat beradi.

Bugungi kunda yuksak taraqqiy topgan zamonaviy mamlakatni iqtisodiyot rivojini, shaharlar va aholi punktlarining hayotiy faoliyatini ta'minlaydigan magistral kommunikatsiyalarning keng tarmog'isiz tasavvur etib bo'lmaydi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida uchinchi ustuvor yo'nalish "Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari" - deb nomlanib, unda korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarini strategik boshqarishda aktsiyadorlarning rolini kuchaytirish hamda yangi sanoat korxonalarini va servis markazlarini tashkil etish, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, yirik xo'jalik birlashmalarining mablag'larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga kichik shaharlar va shaharchalarni jadal rivojlantirish kabi ishlar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan¹.

Keyingi yillarda avtomobil transporti sohasida aholiga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash borasida ko'plab chora-tadbirlar ko'rildi, avtotransport xizmatlarini rivojlantirishning maqsadli parametrlari izchil bajarilmoqda.

Yo'lovchilar tashiydigan avtomobil transportining yangi muntazam yo'nalishlari hamma joyda ochilmoqda, hozirgi vaqtda ularning soni 4,3

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-son Farmoni.